

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



## TAHRIRIYAT

**4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Mardonov, O. Jabborova	<b>6</b>	Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
A. Abdullayev	<b>9</b>	Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
D. Maxmudova	<b>12</b>	Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
M. Musurmonova	<b>16</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
R. Musurmanov, M. Musurmonova	<b>20</b>	Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
F. Ochilov	<b>23</b>	Umumiyo'rta ta'llimmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
B. Axmadaliyev	<b>27</b>	Umumiy o'rta ta'lim mabkalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova	<b>31</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
U. Shermatova	<b>35</b>	Millat ruhini saqlash yo'lida
F. Atabekov	<b>39</b>	Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni
O. Jabborova	<b>43</b>	Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limgni rivojlanitirishning pedagogik muammolari
M. Achilova	<b>46</b>	Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
D. Po'latova	<b>50</b>	Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
Z. Umarova	<b>54</b>	Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Abdullayeva	<b>57</b>	Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi
G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov	<b>61</b>	Uchinchi tartibli tenglamalar
X. Gulyamova	<b>65</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
R. Nosirova	<b>69</b>	Maktabgacha ta'limga metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni mакtabga tayyorlash



## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Mutalova	<b>73</b>	Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
L. Bolievа	<b>76</b>	Oliy ta'limga "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

	<b>X. Gulyamova, U. Shermatova</b> <b>79</b> Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash
	<b>A. Karimjonov, O. Jabborova</b> <b>83</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi
	<b>Z. Shanasirova</b> <b>86</b> Balolarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari
<b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	
	<b>R. Nosirova, N. Rustambekova</b> <b>89</b> O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-ylgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyatga joriy etish texnologiyalari
<b>JISMONIY TARBIYA VA SPORT</b>	
	<b>E. Soatov</b> <b>93</b> Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
	<b>F. Abdullayev B. Abdullayeva</b> <b>97</b> Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'mi
	<b>A. Jo'raboyev</b> <b>101</b> Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
	<b>E. Hurramov</b> <b>104</b> Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mash'ulotlariga umumiy tasnif
<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>	
	<b>N. Maripova</b> <b>107</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish
	<b>A. Sanakulova</b> <b>111</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
	<b>Z. Teshabayeva</b> <b>114</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
	<b>L. Narimbayeva</b> <b>117</b> Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida teatrning roli
	<b>N. Urinova, A. Abdullayev</b> <b>121</b> Ilk yoshidagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
	<b>Z. Nasirova</b> <b>124</b> Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatick aspektlari
	<b>S. Xolmatova</b> <b>128</b> Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari
<b>ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR</b>	
	<b>Z. Narimbetova</b> <b>131</b> Matematika darslarda o'quvchilar ijodkorligini rivojlanishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'mni
<b>ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ</b>	
	<b>Ш. Мардонов, У. Закирова</b> <b>134</b> Об основных понятиях педагогических ценностей
	<b>Ю. Кушназарова</b> <b>138</b> Теоретические исследования в математике
<b>ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ</b>	
	<b>Р. Гимазутдинов</b> <b>141</b> Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

---

**Ra'no NOSIROVA,**  
Chirchiq davlat pedagogika instituti  
"Maktabgacha ta'lifi" kafedrasini o'qituvchisi

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI METODLARNI QO'LLASH ORQALI BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASH**

### **Annotatsiya**

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lif tashkilotlari o'quv tarbiyaviy faoliyatida metakognitiv metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktab ta'limgiga tayy-  
orlash masalalari xususida fikr bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lif tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, metakognitiv, ko'nikma, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

В статье представлены вопросы реформирования системы дошкольного образования в нашей стране, через развитие и совершенствование образовательных учреждений, метакогнитивных методов в образовательной деятельности.

**Ключевые слова.** Система дошкольного образования, учреждение, подрастающее поколение, умственное, интеллектуальное, метакогнитив, духовное развитие, подготовка к школе, совершенствование.

The article reflects on the ongoing reforms in the country to further improve and develop the pre-school education system, the preparation of children for school education using meta-cognitive methods in the educational activities of preschools.

**Key words.** Rreschool education, organization, young generation, intellectual, aesthetic, physical, metacognitive, skills, spiritual potential, school preparation, improvement.

**M**aktabgacha ta'lif tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek o'quv-tarbiya jarayonida ta'lifning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta'lif tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 25-yanvar kuni Oliy Majlisga bildirgan murojaatnomasida: "Maktabgacha ta'lifni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi" deya e'tirof etdi.

Respublikamizda 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'lim tizimini 2030-yилгача рivojlantirish" konsepsiyasini ishlab chiqildi. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'naliшhlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi .

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatlari maktabgacha ta'limdan foy-dalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy bilishning asosiy belgilari, avvalambor, uning ob'ektiv bilimga ongli ravishda intilishi bilan belgilanadi. Yangilikka ongli ravishda intilish ilmiy bilimlarga ham xosdir. M Veber ta'rificha, "fan olamida ilmiy asoslangan g'oyani amalga oshirish uchun o'rganilayotgan voqeaga nisbatan yangi savollarning tug'ilishini anglatadi va bu ke-lajakda mukammal darajadagi ilmlarni egallahsha asos bo'ladi". Ilmiy bilim o'zining ratsionalligi bilan ajralib turadi va u dalil, isbot va tizimlilikni talab etadi.

"Metabilish" tushunchasi fanga ilk bor Djon Fleyvell tomonidan 1976-yilda kiritildi. Uning fikricha, insonning bilish jarayonlari haqidagi umumiy bilimlar majmuasini nazorat qilishga undaydigan bilimlar sohasiga metabolish sohasi deyilad. Dj. Fleyvell metabolishing 4 komponentini ajratadi: metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajriba, metakognitiv maqsad, metakognitiv strategiya.

Ingliz olimi A. Braun ta'kidlashicha, metabolish – bu inson tomonidan o'zlashtirilgan o'zining bilimlari to'g'risidagi bilimdir. Olima metabolishni ikki kategoriya asosida o'rganishni tavsiya etadi:

1. Bilish to'g'risidagi bilim — faoliyat majmui bo'lib, ongli ravishdagi kognitiv xatti-harakat va qobiliyatlarni boshqaruvchi refleksiv jarayondir.

2. Bilish regulyasiyasi – didaktik jarayonlarda bilishga intilish hissini muvofiqlashtiruvchi xatti-harakatlar va faoliyat majmuasi.

Xuddi shunday, A. Braun ta'kidlashicha, metabolish jarayonlari ta'lim berish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni nazorat qilishga xizmat qiladi va bir necha tizimdan iborat bo'lgan faoliyatni tashkil qiladi:

– faoliyatni rejalshtirish jarayoni (rejani shakllantirish, natijani ko'ra bilish, qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish);

– faoliyatni nazorat qilish jarayoni;

– bilish faoliyatining natijaviyligini nazorat qilish.

Ingliz olimi R. Klyuve ham metabolish jarayonlarida kognitiv faoliyatni muvo-fiqlashtiruvchi va boshqaruvchi ikkita tizimini ajratib ko'rsatadi. Xususan,

1. Nazorat jarayoni – qo'yilgan topshiriqni identifikatsiyalashga undovchi, o'z faoliyatiga baho berish va kelgusi faoliyatni rejalshtirishga hamda natijaviyligini ta'minlovchi yo'naltiruvchi jarayon.

2. Boshqaruv (regulyasiya) jarayoni – qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun resurslar taqsimotiga ko'maklashuvchi, topshiriq bajarilishining algoritmini belgilovchi jarayon.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'lim pedagogikasi maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim uzviyligini davom ettiruvchi metakognitiv ta'limni zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil qilishni inobatga olishi zarur. Maktabgacha ta'limda variativlik asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotning ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ko'nikuvchanligini shakllantirish orqali fikr-mulohazali shaxslarni yetishtirish holatini vujudga keltiradi. Ikkinci tomon-

---

dan, maktabgacha ta'limda metakognitiv bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan moslashuvchan ta'lim berish bolaning kattalar bilan muloqoti davomida insonparvarlikka asoslangan subyektlidar jasining belgilanishi bilan o'chanadi.

#### Uslubiy tadqiqotlar

Maktabgacha ta'limda bolalarda metakognitiv ko'nikmalar (o'z-o'zini nazorat qilish, mushohada yuritish, refleksiya)ni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Metakognitiv faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Metakognitiv faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirishni ham bildiradi. Bunda ularga metakognitiv faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongliligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqeя va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda ya-shaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Metakognitiv metodlar asosida bolalarni maktabga tayyorlashda ularning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, maktabgacha ta'lim dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Metakognitiv metodlar asosida bolalarni maktabga tayyorlashda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida metakognitiv masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslarini hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar va ularning maktabga tayyorgarligi shakllanadi. Faqt yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun pedagoglarning asosiy vazifasi – bolaga muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir. Biroq, maktabgacha ta'limda bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kirishini adabiyotlar va tadqiqotlar tahlillaridan aniq bo'ldi.

Maktabgacha ta'limda didaktik mashg'ulotlarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari 2017-2020 yillarda tashkil etilib, dastlabki tajriba-sinov materiallari tayyorlandi. Bu materiallarda quyidagilar kuzda tutildi:

1) mualliflik texnologiyalari va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlar yordamida bolalarning "Ilk qadam" Davlat dasturi asosidagi kompetensiyalarini rivojlanish, o'zaro hamkorlik muhitida ishlash ko'nikmalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etildi.

1) bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qiziqishlari, mayllari o'rganildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval maktabgacha ta'lim pedagoglari bilan individual tarzda suhbatlar o'tkazilib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqlik kiritildi hamda

tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga doir ilmiy-amaliy maslahatlar berildi.

Maktabgacha ta'lif pedagoglari tajriba-sinov avvalida va sinovdan so'ng amalga oshiriladigan nazorat shakl va metodlari bilan tanishtirildi va natijalarini jamlash va umumlashtirish bo'yicha yakdil xulosaga kelindi.

Maktabgacha ta'lif pedagoglari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalarda didaktik mashg'ulotlarni tashkil etishga doir sharoitlar tavsif etildi: har bir mashg'ulot uch bosqich – Da'vat – Anglash – Fikrlashga lib tashkil etish; mashg'ulot jarayonida bolalarning aqliy mehnat qilishini ta'minlash; ularga individual va tabaqalashgan holatda yondashish; erkinligini, tashabbuskorligi, ulardagi fikrlarning xilma-xilligini hurmat qilish va qadrash; o'quv xonasini kerakli didaktik vositalar bilan ta'minlash, o'qitish metod, shakl va vositalarini to'g'ri tanlay olish, kutiladigan natijalarini oldindan belgilab qo'yish ko'zda tutildi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lifda metakognitiv metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlashning principial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat Dasturlari, o'quv-metodik majmular, multimediali ilovalarni ishlab chiqib, amaliyatga joriy etish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lifda metakognitiv metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash modelini takomillashtirish bir necha o'zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma'lum darajada mustaqil tushunchalarining uzviy munosabatidan tashkil topganligi, ta'lif sifati, monitoring va model tushunchalarining ilmiy tafsiflari qiyoslanib, monitoring mexanizmi hamda texnologiyalarilarini huquqiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik jihatdan ilmiy asoslandi.

Mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etishi hamda dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan o'r'in egallashining muhim sharti maktabgacha ta'lifda metakognitiv metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash metodikasining takomillashtirilgan modelini amaliyatga joriy etishdan iborat.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.* –T., 2020-yil, 25-yanvar.
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.*
3. Reber, A . (1985). *The penguin Dictionary of psychology.* Harmonds worth: Penguin Books. 313 б
4. Flavell, J.H. (1976). *Metacognitive aspects of problem solving.* Inl. Resnick (Ed). *The nature of intelligence.* WWIsdRIQ^Hi: Erlbaum, 238 б
5. Brown, A.L (1987). *Knowing when, where and how to remember: A problem of metacognition.* In R. Glaser (Ed) *Advances in instructional psychology.* Hillsdale , NJ: Erlboum, 390 б.